



**KOREYS TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'RGANISHDAGI O'ZIGA XOS
JIHATLAR**

Yunusova Mohinabonu Ulug'bek qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti 1-kurs talabasi

e-mail: yunusova5mokhinabonu7@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada rus va o'zbek tillarida so'zlashuvchilar tomonidan koreys tilini ikkinchi til sifatida o'rganish jarayonida yuzaga keladigan muammo yoki o'ziga xos tomonlari tahlil qilinadi. Xususan, tipologik jihatdan farqli tillar asosida koreys tilini o'zlashtirishda talaffuz, gap tuzilishi va grammatik qo'shimchalarning qo'llanishi bilan bog'liq qiyinchiliklar ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda ushbu omillarning o'rganish jarayoniga ta'siri aniqlanib, qiyosiy yondashuv asosida umumiy va o'ziga xos jihatlari yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *koreys tili, ikkinchi til, talaffuz, so'z tartibi, qo'shimchalar.*

Аннотация: *В данной статье анализируются проблемы и особенности, возникающие у русскоязычных и узбекоязычных студентов при изучении корейского языка как второго языка. Особое внимание уделяется трудностям, связанным с освоением произношения, структуры предложения и использования грамматических аффиксов в корейском языке на фоне типологически отличающихся родных языков. В исследовании выявляется влияние этих факторов на процесс обучения, а также рассматриваются общие и специфические особенности с позиции сравнительного анализа.*

Ключевые слова: *корейский язык, второй язык, произношение, порядок слов, аффиксы.*

Abstract: *This article analyzes the problems and specific features encountered by Russian- and Uzbek-speaking students in learning Korean as a second language. In particular, it examines difficulties related to pronunciation, sentence structure, and the use of grammatical affixes in Korean, considering the typological differences of the learners' native languages. The study identifies the impact of these factors on the learning process and highlights both general and language-specific features from a comparative perspective.*

Keywords: *Korean language, second language, pronunciation, word order, affixes.*

Koreys tilini o'rganish jarayonida ona tilining ta'siri muhim omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, fonetik tizim, gap tuzilishi va grammatik shakllanishlarda koreys tilining rus va o'zbek tillaridan sezilarli darajada farq qilishi til o'zlashtirish jarayonida muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Ushbu farqlar, asosan, talaffuzdagi noaniqliklar, gapda so'zlarning joylashuvi hamda grammatik qo'shimchalarning to'g'ri qo'llanmasligi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Mazkur maqolada rus va o'zbek tillarining fonetik hamda



grammatik xususiyatlari koreys tilini o'rganishga qanday ta'sir ko'rsatishi aniq misollar asosida tahlil qilinadi.

Avvalo, talaffuz bilan bog'liq qiyinchiliklarga to'xtaladigan bo'lsak, koreys tilidagi ayrim unli va undosh tovushlar rus va o'zbek tillarida mavjud emas. Shu sababli, talabalar ushbu tovushlarni idrok etish va to'g'ri talaffuz qilishda qiyinchiliklarga duch keladilar.

Rus tilida so'zlashuvchilar uchun koreys tilidagi **어** [eo]⁶⁴ unlisi ayniqsa murakkab hisoblanadi. Sababi, rus tilida bu tovushga to'liq mos keluvchi fonema mavjud emas va koreys tilidagi **오** hamda **어** unililari rus tilidagi yagona "o" tovushi bilan tenglashtirib yuboriladi. Natijada, quyidagi so'zlarda talaffuz xatolari kuzatiladi:

떡다 [meokda] – yemoq

서다 [seoda] – turmoq

Amaliy kuzatishlarga ko'ra, rus talabalari bu so'zlarni ko'pincha [mokda] yoki [soda] tarzida talaffuz qiladilar.

O'zbek tilida so'zlashuvchilar uchun esa koreys tilidagi **-[eu]** (ㅁ) unlisi alohida qiyinchilik tug'diradi. O'zbek tilida ushbu tovushga yaqin fonema⁶⁵ mavjud bo'lmagani sababli, u ko'pincha boshqa unilar bilan almashtiriladi. Masalan:

그 [geu] – u

그룹 [geurup] – guruh

크다 [keuda] – katta

Amalda bu tovush o'zbekzabonlarga [gə] yoki [u] tarzida eshitilib, so'zning fonetik shakli buziladi. Talaffuzdagi bunday qiyinchiliklarni bartaraf etishda minimal juftliklar asosida mashqlar tashkil etish, shuningdek, audio va vizual materiallardan muntazam foydalanish samarali hisoblanadi. Ayniqsa, ona tili va koreys tili tovush tizimlarini qiyosiy tahlil qilishga asoslangan mashqlar fonetik sezgirligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Koreys tilining muhim grammatik xususiyatlaridan biri jumlada so'zlarning qat'iy tartibda joylashuvidir. Ushbu tilda SOV (Subject–Object–Verb)⁶⁶, ya'ni ega – to'ldiruvchi – kesim tartibi asosiy va deyarli o'zgarmas hisoblanadi. Fe'l odatda gap oxirida keladi va bu holat koreys tilining sintaktik tuzilishida muhim rol o'ynaydi.

O'zbek tilida so'zlashuvchilar uchun koreys tilidagi jumla tartibini o'zlashtirish nisbatan oson kechadi. Chunki o'zbek tili ham asosan SOV tartibiga ega bo'lib, fe'lning gap oxirida kelishi odatiy hol hisoblanadi. Shu sababli, o'zbek tilida so'zlashuvchilar koreyscha gap tuzishda kamroq xatolarga yo'l qo'yadilar.

⁶⁴ McCune G. M. A., Reischauer E. O. The Romanization of the Korean language based upon its phonetic structure. – Seoul : Korea Branch of the Royal Asiatic Society, 1939. – p.16.

⁶⁵ Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili //Toshkent-2018. – 2018. – B. 86-87.

⁶⁶ Ha K., Choi S. Adult Second Language Learners' Acquisition of Word Order and Case Markers in Korean //Korean Language in America. – 2012. – T. 17. – №. 1. – C. 1-23.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Aksincha, rus tilida soʻzlashuvchilar uchun koreys tilidagi qatʼiy soʻz tartibi muayyan qiyinchiliklar tugʻdiradi. Rus tilida soʻz tartibi⁶⁷ nisbatan erkin boʻlib, gapdagi maʼno asosan kelishik va ohang orqali ifodalanadi. Natijada, rus tilida soʻzlashuvchilar koreys tilida feʼlni gap oʻrtasida yoki boshida qoʻllashga moyil boʻladilar, bu esa grammatik jihatdan notoʻgʻri jumalarning yuzaga kelishiga sabab boʻladi.

Quyidagi misollar bu farqni koʻrsatadi:

Koreyscha: 저는 사과를 먹습니다.

Oʻzbekcha: Men olmani yeuman.

Ruscha: Я ем яблоко

Koʻrinib turibdiki, koreys va oʻzbek tillarida feʼl gap oxirida joylashgan boʻlsa, rus tilida u ega ortidan keladi. Bu holat rus tilida soʻzlashuvchilar uchun koreyscha jumla tuzishda asosiy interferensiya manbalaridan biri hisoblanadi.

Jumladagi soʻz tartibini samarali oʻrgatishda diagrammalar, rangli sxemalar hamda bosqichma-bosqich jumla tuzish mashqlaridan foydalanish yordam beradi.

Koreys tilining grammatik tizimi affiksatsiyaga asoslangan boʻlib, qoʻshimchalar orqali oʻzgaradi. Masalan, feʼl negizi oʻzgarmagan holda unga ketma-ket bir nechta qoʻshimcha qoʻshilishi mumkin. Masalan, koreys tilida 먹다 (yemoq) feʼlini olaylik:

먹었습니다 – yedim

먹고 있습니다 – yeb turibman

먹을 것입니다 – yeuman (kelajak)

Bu misollarda feʼl negizi (먹-) saqlanib qoladi, grammatik maʼno esa qoʻshimchalar orqali ifodalanadi. Oʻrganuvchilar koʻpincha qoʻshimchalarning joyini almashtirib yuboradilar yoki ularni tushirib qoldiradilar.

Rus tilida esa, zamon va shaxs maʼnosi asosan feʼl shakli yoki yordamchi soʻzlar orqali beriladi:

Я ел – yedim.

Я буду есть – yeuman.

Oʻzbek tilida ham zamon va shaxs qoʻshimchalari mavjud boʻlsa-da, ular koreys tilidagidek koʻp bosqichli va murakkab emas: Yedim - Yeuman, kabi.

Qoʻshimchalarni oʻrgatishda shablon jumalardan foydalanish yaxshi natija berishi mumkin. Talaba faqat boʻsh joyni toʻldirish orqali grammatik tuzilmani toʻgʻri qoʻllashga oʻrganadi.

Masalan:

저는 ___을/를 먹었습니다.

저는 매일 ___에 갑니다.

저는 ___하고 싶습니다.

⁶⁷ Сиротинина О. Б. Порядок слов // ЭФФЕКТИВНОЕ РЕЧЕВОЕ ОБЩЕНИЕ (Базовые компетенции). – 2014. – С. 463-465.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Shuningdek, ketma-ketlik asosidagi mashqlar ham samaralidir. Masalan, bitta fe'l asosida turli zamonlarni yasash: 하다 → 합니다 → 했습니다 → 하겠습니까 kabi.

Xulosa qilib aytganda, rus va o'zbek tillarida so'zlashuvchilar koreys tilini o'rganishda asosan talaffuz, jumla tuzilishi va qo'shimchalarni ishlatishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Ba'zi koreys tilidagi tovushlari ona tilida yo'qligi sababli ularni to'g'ri aytish oson emas. Jumlada fe'ning oxirida kelishi rus tilida so'zlashuvchilar uchun biroz qiyin bo'lsa, o'zbekzabonlar bunga tezroq moslashadilar. Shuningdek, koreys tilidagi ko'p sonli qo'shimchalar dastlab chalkashlik keltirib chiqaradi. Ammo oddiy mashqlar, tayyor jumlar va ko'rgazmali materiallar yordamida bu qiyinchiliklarni asta-sekin yengish mumkin. Shu sababli, koreys tilini o'rgatishda ona tilini hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. McCune G. M. A., Reischauer E. O. The Romanization of the Korean language based upon its phonetic structure. – Seoul : Korea Branch of the Royal Asiatic Society, 1939. – p.16.
2. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili //Toshkent-2018. – 2018. – B. 86-87.
3. Ha K., Choi S. Adult Second Language Learners' Acquisition of Word Order and Case Markers in Korean //Korean Language in America. – 2012. – T. 17. – №. 1. – C. 1-23.
4. Сиротинина О. Б. Порядок слов //ЭФФЕКТИВНОЕ РЕЧЕВОЕ ОБЩЕНИЕ (Базовые компетенции). – 2014. – С. 463-465.